

5. UN Women. (2023). Gender and Economic Development: Policy Insights. New York: UN Women.

6. Labor Code of the Republic of Uzbekistan (2022). *Official Publication*. Tashkent: Ministry of Justice.

7. Norboyeva, T. (2021). Ayollar bandligi va gender tenglik. *Gazeta.uz*, 22-dekabr. O'zbekiston.

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. (2024). Xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar. *Lex.uz*.

## **DAVLAT BYUDJETI SAMARADORLIGINI TA'MINLASHDA SOLIQ BAZASINI ANIQLASH METODOLOGIYASI XUSUSIYATLARINING AHAMIYATI**

*Xalikchayeva Sadokat Ilxomjonovna  
TDIU huzuridagi "O'zbekiston iqtisodiyotini  
rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari" ITM  
doktoranti (DSc.), PhD*

**Annotatsiya.** Ushbu tezisda soliq bazasini aniqlash metodologiyasining o'ziga xos jihatlari va xususiyatlari haqida baxslar olib borilgan, shuningdek, zamonaviy iqtisodiyot sharoitida soliq bazasini aniqlashning innovatsion yondashuvlari ko'rib chiqilgan. Qolaversa, tezis davomida soliq bazasini aniqlash metodologiyasidagi mavjud muammolar o'rganilgan holda, ularni bartaraf etish mumkin bo'lgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** soliqlar, soliq tizimi, soliq siyosati, soliq bazasi, soliq bazasini aniqlash metodologiyasi, soliq to'lovchilar, soliq obyekti, soliq imtiyozlari, davlat moliyasi, iqtisod .

Soliq bazasi – bu davlat yoki mahalliy boshqaruv organlari tomonidan yig'iladigan soliq va boshqa majburiy to'lovlar manbalarini belgilovchi iqtisodiy ko'rsatkichlar yig'indisi sifatida e'tirof etilsa, soliq bazasini aniqlash metodologiyasi soliq tizimini tashkil etish va boshqarish jarayonida qo'llaniladigan usul va tamoyillar to'plamidir. Xususan, soliq bazasini aniqlash jarayoni, davlatning moliyaviy resurslarini shakllantirish va iqtisodiy siyosatini amalga oshirishda dolzarb bo'libgina qolmay, soliq yig'imlarini oshirish, balki iqtisodiy o'sishni ta'minlash, ijtimoiy adolatni saqlash va korrupsiyani kamaytirish kabi vazifalarni ham o'z ichiga oladi. Soliq bazasini aniqlashning asosiy tamoyillari uning samaradorligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega bo'lib, har bir tamoyil soliq bazasini aniqlash jarayonining alohida jihatlarini yoritadi va ularning o'zaro bog'liqligini ta'minlaydi.

Shu nuqtai nazardan, soliq bazasini aniqlash metodologiyasining o'ziga xos tamoyillari nafaqat nazariy jihatdan e'tiborga molik, balki amaliyotda ham katta ahamiyatga ega ekanligi ushbu tezisning maqsadi sifatida soliq bazasini aniqlash metodologiyasining o'ziga xos jihatlari va e'tibor qaratish kerak bo'lgan xususiyatlari ko'rib chiqish lozimligini belgilab beradi.

Soliq bazasini aniqlash metodologiyasi iqtisodiy nazariyalar, amaliy tadqiqotlar va soliq siyosati kontekstida dolzarb bo'lgan mavzu hisoblanib, har bir davrda har bir mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatida belgilab olingan chora-tadbirlarga asoslangan holda tashkil etiladigan jarayon sanaladi. Shu sababdan bu mavzuni tadqiq etishda turli iqtisodchilar tomonidan ilgari surilgan turli yondashuvlar va davlat tomonidan belgilab olingan ichki va tashqi iqtisodiy siyosat masalalaridan kelib chiqiladi.

Xususan, ayni kunlarda xalqaro hamjamiyat tomonidan soliq bazasini aniqlash metodologiyasida bir qator jihatlarga ko'proq e'tibor qaratib kelinmoqda (1-jadval).

### **1-jadval. Soliq bazasini aniqlash metodologiyasida xalqaro hamjamiyat e'tibor qaratadigan muhim jihatlar<sup>192</sup>**

<b>Nº</b>	<b>Asosiy jihat</b>	<b>Asosiy jihatning mazmuni</b>
1.	Soliq qonunchiligi	Soliq bazasini aniqlashda mamlakatdagi soliq qonunlari va normativ hujjatlar chuqur o'r ganiladi. Bu qonunlar soliq bazasini shakllantirish va hisoblashda asosiy omil hisoblanadi.
2.	Soliq obyektlari	Soliq bazasini aniqlashda soliq ob'ektlarini to'g'ri belgilash muhimdir. Bu yerda mol-mulk, daromad, foyda kabi ob'ektlarning tabiatи va ularning soliqqa ta'siri ko'rib chiqiladi.
3.	Hisob-kitob usullari	Soliq bazasini aniqlashda foydalaniadigan hisob-kitob usullari, jumladan, analitik va sintetik hisob, shuningdek, soliq bazasini baholash metodlariga (masalan, bozor qiymati, xarajatlar usuli) katta e'tibor qaratiladi.
4.	Statistik ma'lumotlar	Soliq bazasini aniqlash uchun statistik ma'lumotlar va tahlillarni to'g'ri yig'ish va tahlil qilish ishlari olib boriladi. Bu ma'lumotlar soliq bazasining o'zgarishini kuzatishga yordam beradi.
5.	Soliq rejasi va strategiyalari	Soliq bazasini aniqlash jarayonida soliq rejasi va strategiyalarini ishlab chiqiladi. Bu, soliq yig'imlarini optimallashtirish va soliq to'lovchilarni rag'batlantirish uchun zarur.
6.	Soliq to'lovchilarning turlari	Turli xil soliq to'lovchilarning (yuridik va jismoniy shaxslar) xususiyatlari hisobga olinadi. Har bir toifaga xos soliq bazasini aniqlash usullari farq qilishi mumkin.
7.	Xalqaro tajribalar	Xalqaro tajribalarni o'r ganiladi va ular milliy kontekstga moslashtiriladi. Bu soliq bazasini aniqlashda yangi yondashuvlar va metodlarni kiritishga yordam beradi.
8.	Ommaviy axborot vositalari	Soliq bazasi haqida jamoatchilikni xabardor qilish va uning ahamiyatini tushuntirish uchun ommaviy axborot vositalaridan foydalaniadi.

<sup>192</sup> Muallif ishlanmasi

Yuqorida tasvrlangan 1-jadval ma'lumotlarida soliq bazasini aniqlash metodologiyasida xalqaro hamjamiyat e'tibor qaratadigan muhim jihatlar birma bir sanab o'tilgan bo'lib, ushbu jihatlar soliq bazasini aniq va samarali aniqlash imkonini yanada oshirishga xizmat qilishi mumkin bo'ladi. Bunda, soliq qonunchilagini chuqur o'rganish, soliq obyektlarini to'g'ri belgilash, foydalaniladigan hisob-kitob usullari, statistik ma'lumotlar va tahlillarni to'g'ri yig'ish ishlari, soliq rejası-yu strategiyalarini ishlab chiqish masalalari, soliq to'lovchilar xususiyatlarining hisobga olinishi va xalqaro tajribalarni o'rganilishidan tortib to soliq bazasi haqida jamoatchilikka tushuntirish uchun ommaviy axborot vositalaridan foydalanish ishlari nazarda tutilmoqda. Ushbu jihatlar yohud xususiyatlар esa soliq bazasini aniqlash metodologiyasining umumiyligi tamoyillarini keltirib chiqaradi.

Soliq bazasini aniqlash metodologiyasi iqtisodiy rivojlanish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega bo'lgan jarayon bo'lganligi uchun ham soliq tizimining samaradorligini oshirish, soliq to'lovchilarniadolatli ravishda yuklash va davlat byudjetini to'ldirish maqsadida ishlab chiqiladi. Yuqorida qilgan tahlillarimizdan shunday xulosa qilishimiz mumkinki, soliq bazasini aniqlash jarayoni iqtisodiy sharoitga mos ravishda amalga oshirilishi, olingan ma'lumotlar ishonchli va aniq bo'lishi, zamonaviy texnologiyalar va analitik vositalardan foydalanish, soliq to'lovchining haq-huquqlari inobatga olinishi zarurligi kabilar soliq bazasini aniqlash metodologiyaning o'ziga xos xususiyatlari sifatida e'tiborga molik. Qolaversa, ushbu xususiyat va tamoyillardan kelib chiqqan holda quyidagi takliflarni berish lozim deb topdik:

1. Har yili iqtisodiy sharoitlar o'zgarib borayotganligi sababli, soliq bazasini aniqlash metodologiyasi muntazam ravishda yangilanib turilishi lozim. Bu, ayniqsa, yangi iqtisodiy tendensiyalarini hisobga olishda muhimdir;

2. Soliq bazasini aniqlash uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni keng qamrovli yig'ish tizimini joriy etishni tavsiya etamiz;

3. Soliq organlari xodimlarining bilim va ko'nikmalarini oshirish uchun doimiy ravishda treninglar o'tkazilishi kerak. Bu xodimlarning malakasini oshirib, metodologiyani samarali tatbiq etishga yordam beradi;

Albatta, ushbu takliflar soliq tizimida soliq bazasini aniqlash metodologiyasining samaradorligini oshirishga va iqtisodiy rivojlanishga hissa qo'shishga yordam beradi deb hisobymiz.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Smith, Adam. The Wealth of Nations. Oxford, England: Bibliomania.com Ltd, 2002.
2. Ricardo, David, 1772-1823. On the Principles of Political Economy and Taxation. London: John Murray, 1817.
3. Mill, John Stuart. Principles of Political Economy. edited by Laughlin, J. New York, (1884)
4. Tversky, A., Kahneman, D. Advances in prospect theory: Cumulative representation of uncertainty. J Risk Uncertainty 5, 297-323 (1992). <https://doi.org/10.1007/BF00122574>

5. Musgrave, R.A. (1959) The Theory of Public Finance. McGraw Hill, New York.
6. Gruber, Jonathan. Public Finance and Public Policy. New York, NY: Worth Publishers, 20052004.
7. Sally Jones, Shelley Rhoades-Catanach, Sandra Callaghan., "Principles of Taxation for Business and Investment Planning" - 704 pages, Hardcover., Published April 7, 2023.

## **FOYDA SOLIG'INI IJTIMOIY-IQTISODIY TARAQQIYOTDAGI O'RNI**

**Axrорор Zarif Oripovich**  
*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti  
 Samarqand filiali professori v.b., i.f.d.*

Hozirgi kunda turli mulk shaklidagi xo'jalik yurituvchi subyektlarning asosiy maqsadi kamroq xarajat qilgan holda maksimal foyda olishga harakat qilishdir. Shu bilan birga, korxona to'lov intizomi mustahkam bo'lsa, budgetga o'z vaqtida soliqlarni to'lab har bir jarimalardan qochishga intiladi va soliqlarni o'z vaqtida budgetga to'laydi.

Nemis iqtisodchisi E.F. Sheffle foydani investisiya qilingan kapital qaytimi sifatida talqin etgan bo'lsa [1], N.V. Milyakov foydani korxona budgetini shakllantirishning muhim manbasi va bu manba hisobidan ishlab chiqarish va ijtimoiy rivojlanish amalga oshirilishini aytib o'tadi [2]. Turli mamlakatlarda yuridik shaxslarning moliyaviy natijalaridan undiriladigan soliqlar mavjud. Har bir mamlakat soliqlarni undirishda o'zining ichki siyosatiga amal qilgan holda yoki tarmoqlar iqtisodiyotidagi sohalarning davlat ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi o'rnidan kelib chiqqan holda ish yuritadi. Korxonalar moliyaviy natijasining soliqqa tortishda yagona yondoshuv mavjud emas.

Ko'pchilik singari D.Mardiasmo ham, foyda solig'ini foyda bilan bog'laydi. U foyda solig'i qonunchilikda ko'rsatilgan subyektiv shartlar va ob'ektiv talablarga rioya qilingandagi soliq to'lovchilardan olinadi deb fikr keltiradi [3].

Korxonalar foyda solig'ining mohiyati foydaning bir qismini majburiy to'lov sifatida davlat budgetiga markazlashtirilishida yuzaga keladigan munosabatlarda namoyon bo'ladi. SHu munosabat bilan "foyda solig'i" tushunchasiga quyidagi taklif shakllantirildi: foyda solig'i deganda korxona, tashkilot va birlashmalarda yaratilgan qo'shimgan qiymatning bir qismi foydani qonun doirasida belgilangan chegaralarda majburiy to'lov sifatida davlat budgeti ixtiyoriga o'tkazilishi bilan bog'liq pul munosabatlari tushuniladi.

Foyda solig'i korxonaning oxirgi moliyaviy natijariga bog'liqligi sababli korxona investision jarayonlari va kapitalni o'sishi jarayoniga ta'sir ko'rsatadi. Korxonalar uchun foyda solig'i asosiy soliq turi hisoblanadi. Foyda solig'ining mohiyatini tushunish maqsadida foyda soliq munosabatiga taalluqli uch xususiyatga ega bo'lmish pul mablag'larining strategik harakatiga diqqatni qaratish zarur: